

To'lov tizimlarida firibgarliklarga qarshi chora usullarini doimiy takomillashtirish munosabati bilan firibgarlik amaliyotlarining hajmini pasayishi kuzatilmoqda.

Jinoyatchilarning yo'lidagi asosiy g'ov - kartalarni saqlashda va qo'llashda ehtiyotkorlik choralariga rioya qilish, hamda karta egalarining o'zlari tomonidan o'z shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarini savodli himoyasidir.

iltimos, quyidagi tavsiya va maslahatlarni zaruriy xavfsizlik choralariga nisbatan qabul qiling:

- karta raqami va mijozlarga xizmat ko'rsatish markazining telefonini ko'chirib oling - bu ma'lumot kartani yo'qotish yoki o'g'irlanishida sizga foydali bo'lib qolishi mumkin. Ushbu ma'lumotni ishonchli joyda saqlang
 - o'z PIN-kodingizni hech qachon yozib qo'ymang - uni eslab qoling. Agarda siz uni yozib olishga qaror qilgan bo'lsangiz, u holda yozuv sizning hamyoningizga tushib qolmaganligiga ishonch hosil qiling, ayniqsa PIN-kodni kartaning o'ziga yozib qo'ymang
 - hech qachon hech kimga o'z PIN-kodingizni oshkor qilmang. Yodda tuting, siz uni hech kimga: bank vakillariga ham, huquq-tartibot organlariga ham, savdo nuqtalarining kassirlariga ham xabar berishingiz kerak emas va xabar berishga majbur emassiz. Faqat karta egasi o'z PIN-kodini bilishi kerak
 - yo'qotilgan yoki o'g'irlangan karta haqida zudlik bilan o'z bankingizga xabar bering. Ba'zi holatlarda, ehtimol, sizdan militsiyaga ariza yoki kartani yo'qotish asoslarini yozma tasdiqlash talab etiladi.
- Kartadan foydalanayotganda:
- o'z plastik kartalaringizni naqd pullarni qanday saqlasangiz xuddi shunday asrang. Ularni mashinada, barda, tungi klubda yoki plyajda unutib qoldirmang.
 - agar bu sodir bo'lgan bo'lsa, tranzaksiya o'tkazish vaqtida o'z kartangizni nigohingizdan qochirmaslikka harakat qiling
 - karta bilan to'lov amalga oshirilganidan keyin aynan sizning kartangizni o'zingizga qaytarishganiga ishonch hosil qiling
 - karta bo'yicha xaridni tasdiqlovchi chekni imzolashdan avval, har doim avval uni tekshiring, bunda chekdagi karta bo'yicha to'langan xarid summasi ko'rsatilganiga diqqatni qarating. Xaridlar to'lovi va bankomatlarda naqd pullarni yechib olish tranzaksiyalarini tasdiqlovchi cheklarni va sliplarni nusxasini saqlab qo'ying
 - hisob bo'yicha o'z ko'chirmangizni har doim tekshiring, ayniqsa safardan qaytgandan so'ng. Karta bo'yicha to'langan xarid summalarini sizda mavjud bo'lgan cheklar bilan solishtiring. Ko'chirmani tekshiring: unda siz tomondan qilingan noma'lum tranzaksiyalar ko'rsatilmaganmi
 - hech qachon biron bir shaxslarga yoki kompaniyalarga telefon orqali o'zingizni kredit kartangizni raqamini uzatmang. Siz faqat agar mashhur, ishonchli kompaniya bilan ish yuritayotganligingizga ishonchga ega bo'lganingizda, kartaning ma'lumotlarini og'zaki o'qib berishingiz mumkin

- agar telefon orqali muloqot qilib turib, siz savdolar bo'yicha menejer tomonidan siquvni o'zingizga his etsangiz, ogoh bo'ling. Ularga o'zingizni plastik kartangizni raqamini, toki xarid qilishga batamom qaror qilmaguningizcha xabar qilmang.
- do'konda xaridni to'lab turib, o'zingiz haqingizda qo'shimcha ma'lumotlarni taklif qilmang: sizdan talab etilishi mumkin bo'lgan narsa - bu shaxsingizni tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilish
- sizning kartalaringizni kim olishi mumkinligini bilishingiz kerak. Agar sizning kartangizdan o'zingizning oila a'zolaringiz (turmush o'rtog'ingiz, bolalar yoki ota-onangiz), sizning ijozatingiz va usiz, u holda u orqali xaridlar va naqd pullarni yechib olish amaliyotlari sizning zimmangizga tushadi.

Sizning kartangiz va PIN-kod:

- debet va kredit kartangizni ishonchli joyda saqlang, shikastlanishiga (tirnalishlar, sinishlar va hokazolar) yo'l qo'ymang
- PIN-kodini hech qachon yozib qo'ymang - uni eslab qoling. Agarda siz uni yozib olishga qaror qilgan bo'lsangiz, u holda yozuv sizning hamyoningizga tushib qolmaganligiga ishonch hosil qiling, ayniqsa PIN-kodni kartaning o'ziga yozib qo'ymang
- sizning kartangizni chiqargan bank bilan shoshilinch aloqa uchun qo'l ostingizda uning telefon raqamini doimo saqlang, uning yo'qotilish holatida esa darhol bank bilan ulaning.

Shaxsiy va moliyaviy ma'lumotlarni himoyalash

Ba'zi mamlakatlarda jismoniy shaxslarning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'irlash tez-tez uchrab turibdi. Jinoyatchilar familiya va ismni, hamda ularga erishimli bo'lib qolgan moliyaviy ma'lumotlarni qo'llab firibgarliklarni amalga oshirmoqdalar. Ko'pchilik mamlakatlarda bunday harakatlar jinoiy javobgarlikka tortiladi. Ko'pchilik odamlar shunga o'xshash firibgarliklarning qurboniga aylandilar - ularning shaxsiy ma'lumotlari endi o'zlarining ijozatisiz ko'p yillar davomida qalloblar tomonidan qo'llanib kelishi mumkin.

Bunday firibgarlikdan to'liq o'zini himoyalash mumkin emas deyishadi. Ammo jinoyatchilarga o'zingiz haqingizda ma'lumotlarni qo'ldan chiqarib yubormaslik - agar quyidagi maslahatlarga jiddiy yondashilsa buning imkoni bor:

- sizning shaxsingizni tasdiqlash mumkin bo'lmagan ma'lumotlarni beparvolik bilan "tarqatib" yubormang (pasport raqami, haydovchilik guvohnomasi va boshqalar) - bu ma'lumotlar firibgarlar qo'lida nihoyatda "qimmatlidir"
- sizga telefon orqali qo'ng'iroq qilayotgan tovar va xizmatlar sotuvchilariga plastik kartalaringiz va bank hisob raqamlaringizni og'zaki so'zlamang
- tranzaksiya yakunlanishi bo'yicha sizga kartani ham, chekni ham qaytarishganligiga ishonch hosil qiling
- siz yo'qotmoqchi bo'lgan barcha moliyaviy hujjatlarni, jumladan xaridlarni to'lash cheklarini, bankomat cheklarini, hisob bo'yicha ko'chirmalarni va siz

uchun kredit liniyasi ochilishi haqidagi bank xabarnomasini ham qog'ozmaydalagich orqali o'tkazib yuboring

- o'z uyingizda o'zingizni barcha moliyaviy hujjatlaringizni kalit bilan qulflangan holatda saqlang
- kredit kartada aks ettirilgan barcha tranzaksiyalar haqiqatdan ham siz tomondan amalga oshirilganligiga ishonch hosil qilish uchun kredit kartasi bo'yicha ko'chirmalarni tekshiring
- agar siz o'tgan oy uchun hisob (kredit karta bilan to'lash hisobi) bo'yicha ko'chirmani olmagan bo'lsangiz, darhol bank bilan ulaning va u jo'natilganligi haqida, va agar u jo'natilgan bo'lsa, qaysi manzil bo'yicha jo'natilganligi haqida bilib oling

- zaruratsiz o'zingiz bilan ortiqcha kredit kartalari, shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar, tug'ilganlik haqida guvohnomalarni ko'tarib yurmang

SHaxsiy xarakterga ega bo'lgan ma'lumotlarni Internetda himoyalash

Texnologiyalar va Internet rivojlanib borishi bo'yicha jismoniy shaxslar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish va ular bilan almashish borgan sari yengillashib bormoqda. Ko'pchilik holatlarda bu haqiqatdan ham hammaga foydali. Masalan, Internetda faqat bizni qiziqtirgan ma'lumotlarni oson va tez tanlab olamiz. Ma'lumotlar bilan bunday almashinuv bizni turmushimizni yengillashtiradi, vaqtni va mablag'larni tejaydi.

Biroq bizning har birimiz turli-tuman shaxsiy ma'lumotlar biron bir kimsa tomonidan ziyonga qo'llanilishiga yo'l qo'ymaslik uchun qo'ldan kelgan barcha choralarni amalga oshirishga majburmiz.

Veb-saytlarga tashrif buyurib, siz haqingizda qanday ma'lumotlar to'planayotganligini bilishingiz va tushunishingiz kerak. Bu haqda saytning ushbu bo'limida o'qish mumkin, bu yerda uning egasi shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlar (Private Policy Statement) bilan saytda ishlash qoidalarini nashr qilishga majbur. Saytlarda bunday bo'limlar nima uchun kerak va nima uchun ular bilan albatta tanishish kerak?

Shaxsiy xarakterdagi (Privacy Policy) ma'lumotlar bilan saytda ishlash qoidalari haqidagi bo'limni qanday topsa bo'ladi

Ushbu bo'limlarni nihoyatda oson erishimli va yengil o'qiladigan qilish zarur. Ko'pchilik saytlarda ushbu bo'lim sahifasiga havola bosh sahifaning pastki qismida yoki "Mijozlarni qo'llab-quvvatlash" bo'limida joylashgan. Ushbu havolani izlab toping va uning ustiga bosing. Ingliz tilidagi ma'lumotlar joylashtirilgan saytlarda ushbu bo'limlar odatda "Privacy" yoki "Information Practices" so'zlari bilan belgilangan.

Shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlar bilan to'g'ri ishlashning asosiy tamoyillari

Siz tomondan u yoki bu saytga tashrif buyurishning aniq maqsadiga bog'liq holda, siz o'z haqingizda ma'lumotlarni sayt egasiga uzatasiz, yoki buni qilish kerak emas deb hisoblaysiz. Bunda bu ma'lumot kelajakda qanday qo'llanilishini

anglash juda ham muhimdir. Ushbu saytda shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlar bilan ishlash qoidalari (siyosati) bilan tanishib chiqib, siz o'zingiz haqingizda ma'lumotlarni qaysi qismda va qanday hajmda oshkor etish qarorini qabul qilasiz. Shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlarni to'plash va qo'llashning to'g'ri siyosati haqida odatda uning quyidagi alomatlari bo'yicha fikr yuritish mumkin:

- Xabarnoma. Shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlar bilan ishlash qoidasi qanday ma'lumot to'planayotgani va u kelajakda qanday ishlatilishi haqida sayt tashrifchisiga aniq va tushunarli xabar beriladi.
- Tanlov. To'planayotgan ma'lumot qaysi tarzda ishlatilishini tanlash huquqi tashrifchilarga taqdim etiladi, ayniqsa agar sayt egasi uni uchinchi shaxslarga berib yuborilishini rejalashtirmayotgan bo'lsa (masalan, elektron pochta manzillari ma'lumotlar bazasini sotish va hokazo). Saytda muolajalar amal qiladi, ular yordamida tashrifchiga taqdim etilayotgan ma'lumotni uzatish, tarqatish u yoki bu sxemasida ishtirok etishni qabul qilish yoki rad etish ochiqchasiga taklif qilinadi.
- Kirish. Sayt tashrifchilari taqdim etilayotgan ma'lumotlarning dolzarbligini va to'g'riligini ta'minlash uchun o'zlari haqidagi ma'lumotlarni ko'zdan kechirish va yangilash imkoniyatlari mavjud.
- Xavfsizlik. Saytda to'planayotgan ma'lumotlarni ruxsat etilmagan kirish yoki o'zgartirishdan himoyalash bo'yicha barcha zaruriy choralar amalga oshirilgan.

Ba'zida veb-saytlarda shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlar bilan ishlash qoidalariga muvofiqlik sertifikatlari deb nomlanuvchi hujjatlarni ham ko'rish mumkin ("Privacy Seal"). Mazkur sertifikat ushbu saytning shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlarni himoyalashga ixtisoslashtirilgan mashhur kompaniyaning umumqabul qilingan muvofiqliklariga ko'rsatadi, unga, o'rni kelganida aytish joizki, tashrifchilar sayt egalari bilan vujudga kelgan har qanday munozaralarni hal etish uchun murojaat qilishlari mumkin.

Shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlarni himoyalash bo'yicha maslahatlar

- Ushbu saytda nashr qilingan shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlar bilan ishlash qoidalarini o'qib chiqing. Siz haqingizda qanday ma'lumotlar to'planayotganligini, bu qay tarzda amalga oshirilayotganligini va u kelajakda qanday ishlatilishini aniqlab oling.
- Agar siz nashr etilgan qoidalarni topolmagan bo'lsangiz, ularni elektron pochta orqali sizga yuborilishini veb-ma'murchidan so'rang yoki ularni saytda nashr qilish iltimosi bilan unga murojaat qiling.
- Turli so'rovlarda, sovrinlar o'yinlarida va o'zingiz haqingizda ma'lumotlarni sizdan talab etadigan o'yinlarda ishtirok etishdan avval, shaxsiy xarakterdagi ma'lumotlar bilan ishlash bo'yicha sayt qoidalarini ham, o'yin qoidalarini ham o'qib chiqing, ularda siz o'z tomoningizdan taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishlatilishi haqida javob topishingiz mumkin
- Ushbu veb-saytda sizga tanlov taqdim etilayotganligiga ishonch hosil qiling: siz ishtirok etish taklifini qanday qabul qilsangiz, unda ishtirok etishga roziligingizni ham shunday chaqirib olishingiz mumkin.